



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

**www.innoworld.net
O'ZBEKISTON-2026**



Volume 3 Issue 2 | 2026 |

+99833 5668868 | @Anvarbek_PhD

Page | 2

Sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy javobgarligi**Axmadvov Sherzod Xusniddinovich**

Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti 1-Bosqich Talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi sharoitida yuzaga keladigan huquqiy muammolar va ulardan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zararlar uchun kim javobgar bo'lishi kerakligi - ishlab chiquvchimi, egasimi yoki tizimning o'zimi - degan savolga xalqaro tajriba va milliy qonunchilik bazasi orqali javob izlanadi. Shuningdek, maqolada sun'iy intellektning huquqiy maqomi, "elektron shaxs" tushunchasi va intellektual mulk huquqi bilan bog'liq ziddiyatlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot yakunida raqamli texnologiyalar davrida huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, huquqiy javobgarlik, raqamli huquq, algoritmik shaffoflik, elektron shaxs, texnologik xavfsizlik.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые проблемы, возникающие в контексте стремительного развития систем искусственного интеллекта, и вопросы ответственности, возникающие в процессе их использования. На вопрос о том, кто должен нести ответственность за ущерб, причиненный искусственным интеллектом — разработчик, владелец или сама система — дается ответ на основе международного опыта и национальной законодательной базы. В статье также рассматривается правовой статус искусственного интеллекта, концепция «электронного лица» и конфликты, связанные с правами интеллектуальной собственности. В заключение исследования предлагаются меры по устранению пробелов в законодательстве и его совершенствованию в эпоху цифровых технологий.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, юридическая ответственность, цифровое право, алгоритмическая прозрачность, электронное лицо, технологическая безопасность.

Abstract. This article analyzes the legal problems that arise in the context of the rapid development of artificial intelligence systems and the issues of liability arising in the process of their use. The question of who should be responsible for the damage caused by artificial intelligence - the developer, the owner, or the system itself - is answered through international experience and the national legislative framework. The article also examines the legal status of artificial intelligence, the concept of "electronic person" and conflicts related to intellectual property rights. At the end of the study, proposals are put forward to fill legal gaps and improve legislation in the era of digital technologies.

Keywords: Artificial intelligence, legal liability, digital law, algorithmic transparency, electronic person, technological security.

Kirish. Insoniyat bugungi kunda to'rtinchi sanoat inqilobining eng cho'qqisida turibdi. Sun'iy intellekt nafaqat texnologik yutuq, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartiruvchi kuchga aylandi. Tibbiyotdan tortib moliya sektoriga, ta'lim tizimiga avtonom transport vositalaridan tortib sud-huquq

tizimigacha - sun'iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Biroq, texnologik taraqqiyotning shiddati huquqiy tartibga solish mexanizmlaridan ancha ilgarilab ketgani bir qator murakkab savollarni kun tartibiga qo'yimoqda. Mavzuning dolzarbligi shundaki, sun'iy intellekt algoritmlari endi shunchaki oddiy vosita emas, balki mustaqil ravishda qaror qabul qilish, tahlil qilish va hatto ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lgan murakkab tizimlardir. Agar sun'iy intellekt xatoga yo'l qo'ysa va buning natijasida inson salomatligiga yoki mulkiga zarar yetsa, amaldagi an'anaviy huquq normalari buni to'liq qamrab ololmaydi. Masalan, haydovchisiz boshqariladigan avtomobil ishtirokidagi yo'l transport hodisasida kim aybdor: kod yozgan dasturchimi, avtomobil egasimi yoki qarorni qabul qilgan algoritmi?

Ushbu maqolaning maqsadi - sun'iy intellektning huquqiy sub'yektligini o'rganish va "aybsiz javobgarlik" hamda "qat'iy javobgarlik" tamoyillarini sun'iy intellekt tizimlariga nisbatan qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilishdir. Shuningdek, jahon tajribasida (Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt to'g'risidagi akti kabi) sun'iy intellekt risklarini tasniflash va ularni huquqiy jilovlash borasidagi yondashuvlarni o'rganish milliy qonunchiligimizni raqamli transformatsiya qilishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Biz "mashina xatosi" uchun inson javobgarligini qanday belgilashimiz kerak? Algoritmarning shaffof emasligi sud jarayonida isbotlash majburiyatini qanday qiyinlashtiradi? Mazkur tadqiqot ushbu fundamental savollarga huquqiy nuqtai nazardan yechim topishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt (SI) - bu kompyuter tizimlari tomonidan odatda inson aql- zakovati talab qilinadigan vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Bunga o'rganish, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, nutqni tushunish va ko'rish kabilar kiradi. Yevropa Parlamenti tomonidan 2024-yil mart oyida qabul qilingan "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonun (AI Act) sun'iy intellektni quyidagicha ta'riflaydi: turli darajadagi avtonomiya bilan ishlaydigan va dasturlashtirilgandan keyin moslashish qobiliyatiga ega bo'lgan, aniq yoki bevosita maqsadlar uchun bashoratlash, tavsiyalar berish yoki qarorlar qabul qilish orqali fizik yoki virtual muhitga ta'sir ko'rsatadigan tizim.

Sun'iy intellektning asosiy turlari:

Zaif sun'iy intellekt - ma'lum bir vazifani bajarish uchun dasturlashtirilgan tizimlar. Kuchli sun'iy intellekt - inson ongiga o'xshash umumiy kognitiv qobiliyatlarga ega tizimlar. O'rganadigan sun'iy intellekt - tajriba orqali o'rganuvchi va rivojlanuvchi tizimlar. Huquqiy sub'yektlilik masalasi:

Zamonaviy huquq tizimida sub'yektlar ikki asosiy toifaga bo'linadi: jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar. Sun'iy intellekt esa ushbu klassifikatsiyaga to'liq mos kelmaydi, chunki u na biologik mavjudot, na insonlar tomonidan tashkil etilgan tashkilotdir. Yevropa Parlamenti 2017-yilda "Robotexnika sohasida fuqarolik huquqi qoidalari" to'g'risidagi rezolyutsiyasida "elektron shaxs" statusini kiritish bo'yicha taklif bilan chiqdi. Ushbu statusga ko'ra, yuqori darajada avtonom bo'lgan robotlar alohida huquqiy sub'yekt sifatida tan olinishi mumkin edi. Biroq, bu taklif keng tanqidga uchradi va hozircha amalga oshirilmadi. O'zbekistonda sun'iy intellekt va raqamli huquq: O'zbekiston sun'iy intellektini tartibga solish bo'yicha

MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib aniq qonunchilik bazasini shakllantirishga kirishdi. 2026-yil 21-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga imzo chekdi. Ushbu qonunga ko'ra:

Ma'muriy javobgarlik: Sun'iy intellekt yordamida shaxsga doir ma'lumotlarga noqonuniy ishlov berganlik uchun 50 dan 100 baravargacha (BHM) miqdorda jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi belgilandi.

Majburiy markirovka: Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan har qanday kontent (matn, tasvir, video) majburiy tartibda markirovka qilinishi (ya'ni bu kontent sun'iy intellekt tomonidan yaratilgani ko'rsatilishi) shart qilib belgilandi. Bunga yana qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi. Unda quyidagi vazifalar aniq ko'rsatkichlar bilan belgilab qo'yildi:

Iqtisodiy samaradorlik: 2030-yilga qadar sun'iy intellekt mahsulotlari va xizmatlari hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish. Inson kapitali: 2030-yilgacha "5 million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasi doirasida 4,7 mln o'quvchi va talabalarni sun'iy intellekt bilan ishlashga o'qitish. Infratuzilma: 2026-yil 1 martga qadar "Yangi O'zbekiston" universiteti bazasida yirik "Sun'iy intellekt klasteri" va hisoblash quvvatlari ishga tushirilishi belgilangan.

Bu islohotlar albatta samarasiz ketmayapti sababi, O'zbekiston "Government AI Readiness Indexi"da: 2023-yilda: 87-o'rin 2024-yilda: 70-o'rin 2025-yilda: 62-o'ringa ko'tarildi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida "Raqamli huquq" tushunchasi endi nafaqat nazariy, balki "Raqamli kodeks" loyihasi orqali amaliyotga ko'chmoqda. 2026-yilgi yangi qonunchilikka ko'ra, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxldor qarorlar qabul qilishda (masalan, sud hukmi, ishga qabul qilish yoki rad etish) faqatgina sun'iy intellekt algoritmlariga tayanish taqiqlandi. Yakuniy qarorni albatta inson qabul qilishi shart ekanligi aniq qilib belgilab qo'yildi.

Maqola doirasida olib borilgan tahlillar asosida O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni bermoqchiman: **1. Fuqarolik kodeksiga o'zgartirish kiritish:** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 999-moddasiga "avtonom tizimlar va sun'iy intellekt algoritmlari yordamida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik" mazmunidagi bandni qo'shish. Bunda "qat'iy javobgarlik" tamoyilini qo'llash, ya'ni sun'iy intellekt tizimidan daromad ko'rayotgan shaxs uning xatosi uchun birinchi navbatda javob berishi belgilanishi lozim.

2. Sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilash: Kelajakda qabul qilinadigan "Raqamli kodeks"da sun'iy intellekt tizimlarini "kvazi-sub'yekt" sifatida e'tirof etish masalasini ko'rib chiqish. Bu sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk ob'yektlariga egalik masalasini hal qilishga yordam beradi.

3. Etik nazorat qo'mitasini tuzish: Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda inson huquqlari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida Adliya vazirligi huzurida "Raqamli etika bo'yicha milliy kengash" tashkil etish.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt tizimlari endilikda shunchaki texnik vosita emas, balki ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Biroq, amaldagi qonunchilik bazasi sun'iy intellekt tomonidan mustaqil ravishda qabul qilingan qarorlar natijasida yetkazilgan zararni qoplashda bir qator huquqiy bo'shliqlarga ega.

Asosiy xulosa shundan iboratki, sun'iy intellektni to'liq huquqiy sub'yekt (elektron shaxs) sifatida tan olishga hali erta bo'lsa-da, uni "o'ta yuqori xavf manbai" sifatida tasniflash va uning harakatlari uchun insoniy javobgarlik zanjirini aniq belgilash davr talabidir. O'zbekistondagi raqamli transformatsiya jarayonlari "texnologik rivojlanish huquqiy himoyadan ustun turmasligi kerak" degan tamoyilga asoslanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi "Sun'iy intellektni qo'llash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-1018-sonli Qonuni.
3. European Union AI Act (2024). Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council. - eur-lex.europa.eu
4. Rustambekov, I. Raqamli huquq va sun'iy intellekt: huquqiy tartibga solish masalalari. - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2024.
5. Lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (Amaldagi tahriri).